ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI




| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

№7
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 596 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Umarova H. O'.** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna** – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Umarova H. O‘. –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
**Karimova E’zoza Gapirzhanovna** – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G‘. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg‘izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma’murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O‘zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari ......... 16
Doniyorov Salim Musurmonovich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish ......... 23
Nazarov Odil Omanqulovich

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni ......... 27
Abirova Umida Nazarovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati ......... 30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li

Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari ......... 34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati ......... 38
Salimova Dilmira Farxodovna

Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar ......... 41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich

Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati ......... 44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich

Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar ......... 48
E. Po'latova

Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ......... 51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna

O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar ......... 55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi ......... 60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons ......... 63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi

Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish ......... 67
Nomozova Dilobar Suyun qizi

Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar ......... 72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi

3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories ......... 75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li

Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature ......... 80
Ruzieva Maftuna

Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari ......... 85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna

Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) ......... 88
Sharipova Hakima Shavkatovna

Metacognition and Self-Regulated Learning ......... 92
Turayeva Nazira Ibragimovna

Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода ......... 95
Меденцева Наталья Петровна

Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari ......... 100
Jonibekov Jasur Jonibekovich

O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi ........ 105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi

Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi ........ 108
Bakayev Najmiddin

Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida ........ 112
Egamova Madina Qobil qizi

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari ........ 116
Egamova Shukriya Amanovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari ........ 119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi

Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish ........ 124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich

Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ........ 128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna

Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari ........ 131
Ikromova Munisa Sheraliyevna

Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari ........ 134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna

Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar ........ 138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ........ 141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna

Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi ........ 145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna

Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari ........ 148
Mamadiyorov Jamol

Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari ........ 152
Sharipova Firuza Mehriddinovna

Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli ........ 155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li

Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida ........ 159
Xallokova Maksudaxon Ergashevna

Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari ........ 162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi ........ 166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna

Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari ........ 170
Yodgorova Gulrux Farhodovna

Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования ........ 174
Юлдашев Эргаш Сабирович

O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati ........ 177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida ........ 180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna

Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar ........ 185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi

The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes ........ 189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari ....... 192
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna

Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi....... 196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi

Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik ....... 201
Adilova Zulfiya Djavdatovna

Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni ....... 204
Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi

The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach ....... 207
Abdukhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi

Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati....... 210
Abdullayeva Ugiloy Djurayevna

Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti ....... 214
Aripova Sayida Abdulaxatovna

Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi ....... 217
Rasuljon Atamuratov

Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi....... 221
Azizova Shodiya Utkur qizi

Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari ....... 224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna

O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash....... 228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li

Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar ....... 232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi

Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari ....... 236
Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi

Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari....... 239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi ....... 242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon

Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli ....... 245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi

Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni ....... 248
Umirova Guldona Jamoliddin qizi

Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari ....... 251
Ungalov Akmal Navruzovich

Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi ....... 254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna

Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati ....... 257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li

Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati....... 260
Yuldasheva Mastura Islamovna

Пословицы и поговорки как отражение картины мира ....... 263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна

Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni ....... 268
Abdumannopov Muhammadsohib Muhammadyusuf o'g'li

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantrishning o'ziga xos xususiyatlar....... 272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna

Zamonaviy didaktik yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarning analitik va ijodiy koʻnikmalarini rivojlantirish....277
Moʻminova Gulhayo Turgʻunboy qizi

Kompetensiyaviy yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari....280
Oʻrinova Nilufar Muhammadovna

Aholi oʻrtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish metodikasi....286
Raximov Xasanboy Kamoliddin oʻgʻli

Buyuk ipak yoʻli – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida....290
Tugalova Madina Erkin qizi

Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya....293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna

Rus tilida oʻqish koʻnikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari....297
Xanova Dilrabo

Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies....303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna

Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini oʻqitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli....306
Ametova Guljamilya Elbrusovna

Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish....310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich

Aksiologik yondashuv asosida oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etishning til oʻrganish jarayonidagi ahamiyati....314
Choriyeva Feruza Amrullayevna

Ibrayim Yusupovning "Saksovul" she'rini oʻqitish metodikasi....317
Darmenov Allayar Abdilxaq uli

Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi

Oiladagi zoʻravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar....324
Joʻrayeva Kaniza Akbarali qizi

Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari....329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi

Nodavlat ta'lim tashkilotlari oʻquvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish....334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor oʻgʻli

Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar....339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi

Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini....346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi

OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari....350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi

Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining oʻrni....356
Abdullayev Roʻzimuxammad Akramjon oʻgʻli

Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning oʻqitishning lingvodidaktik asoslari....361
Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich

Boʻlajak oʻqituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash....365
Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon oʻgʻli

Maktab ta'limida koʻpaytirishning qulay usullari....371
Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi

Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri....375
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning oʻrni....378
Isoqov Nuriddin Halim oʻgʻli

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini integrativ oʻqitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish....382
Joʻrayeva Nargiza Jamolidinovna

Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности....386
Марасулова Доно Нигматуллаевна

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati ..... 389
Ungarbayeva Ayman Davletbayevna

Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'lboshchisi ..... 393
Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi

Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish ..... 396
Yulchiyeva Shoxsanam

Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе ..... 399
Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович

Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения ..... 403
Р. К. Ауезова

Воздействие медиа в контексте социального формирования личности ..... 407
Хайдарова Гулинур Нурбек кизи

Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов ..... 411
Чинкулова Гулмехра Бахроновна

O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi: tajriba va amaliyot ..... 417
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy tadbirlarning o'rni ..... 423
G'aybullayeva Sabohat Ulug'bek qizi, Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining adabiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashning ahamiyati ..... 426
Islomova Xafiza Azamatovna

O'quvchilarda estetik qobiliyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyati ..... 430
Kaxarova Gulnora Sa'dullayevna

Boshqaruv kompetentligi tushunchasining pedagogik psixologik va menejment sohalaridagi ilmiy asoslari va evolyutsiyasi ..... 434
Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna

Muhandislik ta'limida zamonaviy kompyuter grafikasi vositalari yordamida talabalarning konstruktorlik faoliyatini rivojlantirish ..... 438
Muxitdinov Abduvahob Abduvalievich

Turizm sohasiga oid terminlarni o'qitishda axborot texnologiyasi orqali takomillashtirish ..... 442
Nishanova Hafiza Vafoqulovna

Ilmiy maqola yozish kompetensiyasini rivojlantirishda statistik metodlarni integratsiyalashning ta'limiy samaradorligi ..... 446
Rahimova Indira Qudrat qizi

Sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalari va konsepsiyalari ..... 451
Rustamova Mohimbonu Maxammadjon qizi

Pedagogik mahoratni baholashda O'zbekiston va Kanada tajribasining qiyosiy tahlili ..... 455
Tursinova Zoxida Sharabidinovna

Basketbolning insonning jismoniy va kognitiv rivojlanishiga ta'siri: ilmiy tahlil ..... 463
Umarjanov Alimardon Alisher o'g'li

Talaba qizlar psixik salomatligi xususiyati deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omil sifatida ..... 466
Xasanova Mashxura Abduvalievna

Ta'lim jarayonida o'yinlardan samarali foydalanish texnologiyasi ..... 471
Ortiqova Yulduz Akram qizi

Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirish ..... 475
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna

Talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni aniqlashda L. Starkining tanqidiy fikrlashni baholaydigan modifikatsiya qilingan testidan foydalanish metodikasi ..... 479
Egamberdiyeva Nodira Melibayevna, Xaydarova Ra'no Anvarovna

Akademik litseylarda fizikani o'qitish jarayoniga "Case-Study" metodini integratsiyalash ..... 484
Batirov Behzod Baratovich

Nasriy asarlarni o'rgatish samaradorligini oshirish ..... 489
Maftunaxon Akbarova

Autik spektr buzilishi bo'lgan bolalarda sun'iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan o'qitish ....................493
**Norboyeva Zamira Ravshanbekovna**

Milliy libos dizaynida an'anaviy va zamonaviy elementlar uyg'unligi ....................496
**Xo'jamurodova Sevinch Abdilmajidovna**

Роль дидактических игр в развитии пространственного воображения учащихся ....................499
**Валиев А. Н., Иброхимова Д. Н.**

Технология проблемного обучения как средство формирования критического мышления при обучении русскому языку ....................505
**Собирова Гулибарно Зайнитдин кизи**

Bo'lajak o'qituvchilarning amaliyot jarayonida raqamli pedagogik resurslardan foydalanish samaradorligi ....................510
**Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, To'xtayeva Robiya Ravshanbek qizi**

Changes in Milk Production and Quality Indicators of Milk Flow (Goats) in Accordance With their Origin and Feeding ....................515
**Abdurasulova Kamola G'afurovna, Pardayeva Muborak, Tursunqulova Diyora, Fayziyeva Vazira**

Maktab o'quvchilarining tarixiy jarayonlarni idrok etishida badiiy adabiyotlarning o'rni ....................519
**Akbutayeva Nafisa Bozarovna**

Talabalarda ijodiy kompetensiyaning pedagogik-psixologik jihatlari ....................525
**Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi**

Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim pedagogik muammo sifatida ....................529
**Ibragimov Abdulla Abdurayimovich**

Nutqiy rivojlanishi sust bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur xususiyatlari ....................536
**Isayeva Mushtariy Alisher qizi**

Biologiyaning "Ekosistema" bobini muammoli o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir materiallarni tanlash tamoyillari ....................540
**Jumanov Muratbay Arepbayevich, Ravshanova Umida Baxriddinovna**

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosidan maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda foydalanish ....................544
**A. Abdumannatov, Kattayeva Xumora Mamadiyor qizi**

Yoshlar ma'naviyatining shakllanishida milliy an'analar va qadriyatlar ....................548
**Kulmatov Primkul Melikuziyevich**

Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv va ertaklardan foydalanish ....................552
**Madina Tashpulatova**

Globalashuv davrida jahon geografiyasida siyosiy jarayonlar ....................555
**Mamatkulova Mayaguzal Yalkapberdiyevna**

Ixtisoslashgan maktablarda ona tili va adabiyot darslarida kommunikativ mashqlardan foydalanish metodikasi ....................559
**Mavlanova Saidaxon Umarovna**

How Bilingualism Enhances Human Personality ....................564
**Musulmonova Shokhruza Mukhtorjon kizi**

Axborot texnologiyalar asrida pedagoglarning tarmoq uyushmalari: norasmiy ta'lim platformasi uzluksiz kasbiy rivojlanish vositasi sifatida ....................568
**Pulatova E'tibor Obidovna**

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ma'naviy qadriyat sifatida insonparvarlik tuyg'ularini singdirish prinsiplari ....................572
**Xakimova Marxabo O'raqovna**

Harbiy vatanparvarlik tushunchasi va uning nazariy asoslari ....................576
**Xudoyqulov Alimjon Obloqulovich**

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida sinf rahbari faoliyatiga tayyorlashning texnologiyasi ....................579
**Xusenova Sadaqat Botirovna**

Dars jarayonida o'quvchilarning diqqat etishmovchiligini oldini olish ....................585
**Yulchiyeva Shoxsanam**

Факторы, влияющие на развитие духовно-эмоционального интеллекта: методы и приёмы его развития на уроках литературы ....................589
**Наврузова Е. П.**

Об особенностях применения энергетических терминов на уроках русского языка ....................592
**Халикова Мухтарам Набиевна**

# GLOBALASHUV DAVRIDA JAHON GEOGRAFIYASIDA SIYOSIY JARAYONLAR



Mamatkulova Mayaguzal Yalkapberdiyevna
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti tyutori

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada globallashuv jarayonining jahon siyosiy geografiyasiga koʻrsatgan taʼsiri har tomonlama tahlil qilinadi. Xususan, geosiyosiy kuchlarning qayta taqsimlanishi, transmilliy tashkilotlarning davlat siyosatiga aralashuvi, siyosiy migratsiya, raqamli xavfsizlik va axborot urushlari, shuningdek, mintaqaviy siyosiy mojarolar globallashuv kontekstida oʻrganiladi. Maqolada, shuningdek, Oʻzbekiston va Markaziy Osiyo misolida mintaqaviy siyosiy tendensiyalar tahlil qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** globallashuv, siyosiy geografiya, geosiyosiy kuchlar, transmilliy tashkilotlar, siyosiy migratsiya, raqamli xavfsizlik, axborot urushi, Markaziy Osiyo.

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the impact of globalization on the political geography of the world. In particular, it examines the redistribution of geopolitical power, the intervention of transnational organizations in state politics, political migration, digital security, and information warfare, as well as regional political conflicts in the context of globalization. The article also analyzes regional political trends using the examples of Uzbekistan and Central Asia.

**Key words:** globalization, political geography, geopolitical power, transnational organizations, political migration, digital security, information warfare, Central Asia.

**Аннотация:** В данной статье всесторонне анализируется влияние процессов глобализации на политическую географию мира. В частности, рассматриваются перераспределение геополитических сил, вмешательство транснациональных организаций в государственную политику, политическая миграция, цифровая безопасность и информационные войны, а также региональные политические конфликты в контексте глобализации. В статье также проанализированы региональные политические тенденции на примере Узбекистана и Центральной Азии.

**Ключевые слова:** глобализация, политическая география, геополитические силы, транснациональные организации, политическая миграция, цифровая безопасность, информационные войны, Центральная Азия.

## KIRISH

XXI asr boshlarida globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylandi. Bu jarayon faqat iqtisodiy integratsiyani emas, balki siyosiy, madaniy, axborot va xavfsizlik sohalarini ham toʻliq qamrab oldi. Har bir davlat, jamiyat, hattoki yakka shaxs ham global tizim taʼsir doirasiga tushib qoldi. Globallashuv sharoitida davlatlar endilikda nafaqat ichki, balki tashqi siyosatini ham global muhit, xalqaro tashkilotlar, transmilliy kompaniyalar va axborot oqimlariga qarab shakllantirishga majbur boʻlmoqda. Shu sababli, jahon siyosiy geografiyasida globallashuv taʼsiridagi jarayonlarni oʻrganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Soʻnggi oʻn yilliklarda globallashuv insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biriga aylandi. Mazkur jarayon nafaqat iqtisodiy yoki madaniy sohalarda, balki siyosiy tizimlarda ham chuqur iz qoldirmoqda. Ayniqsa, davlatlararo chegaralarning nisbatan ochiqlashuvi, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalarning taʼsir kuchayib borayotgani dunyo siyosiy xaritasining qayta shakllanishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, globallashuv zamonaviy geosiyosiy muhitda muhim rol oʻynab, jahon geografiyasida sodir boʻlayotgan siyosiy jarayonlarga bevosita taʼsir koʻrsatmoqda.

Geosiyosiy kuchlarning markazlashuvi yoki tarqalishi, davlatlararo ittifoqlar va alyanslar dinamikasining oʻzgarishi, xavfsizlik muammolarining xalqaro tus olishi, migratsiya oqimlarining siyosiy sabablarga bogʻlanishi – bularning barchasi globallashuv kontekstida yangicha talqinda koʻrib chiqilmoqda. Ilgari mahalliy yoki mintaqaviy darajada namoyon boʻlgan siyosiy jarayonlar bugungi kunda global miqyosda koʻzga tashlanmoqda. Masalan, Yaqin Sharqda yuz berayotgan siyosiy inqiroz nafaqat ushbu mintaqaga, balki Yevropa Ittifoqi,

Rossiya, AQSh, Xitoy kabi yirik geosiyosiy aktyorlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday globallashgan siyosiy dinamika, o'z navbatida, siyosiy geografiyaning yangi yo'nalishlarini shakllantirmoqda.

Siyosiy geografiya fanining asosiy o'rganish obyekti – bu davlatlarning hududiy chegaralari, siyosiy tuzilmalari, ularning o'zaro munosabatlari va xalqaro maydondagi o'rnidir. Globallashuv esa aynan mana shu omillarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Yirik davlatlar geostrategik manfaatlarini himoya qilish maqsadida chekka hududlarda harbiy yoki iqtisodiy faollikni kuchaytirayotir, transmilliy tashkilotlar esa suverenitet tushunchasini qayta talqin qilmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida olib borilayotgan axborot urushlari, kiberxavfsizlik tahdidlari hamda internet orqali amalga oshirilayotgan siyosiy manipulyatsiyalar siyosiy geografiyaga yangi ko'lamda yondashishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston kabi Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham mazkur jarayonlar befarq emas. Mintaqaning geosiyosiy joylashuvi, tabiiy resurslari va yirik davlatlar uchun strategik ahamiyati uni doimiy siyosiy bosimlar va tashqi ta'sirlar markazida saqlab turadi. Shuningdek, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, chegara masalalarini hal etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish globallashuv sharoitida yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

Shu boisdan, mazkur maqolada globallashuvning jahon siyosiy geografiyasiga ko'rsatgan ta'siri, uning asosiy yo'nalishlari, geosiyosiy kuchlar muvozanatining o'zgarishi, siyosiy migratsiya, raqamli xavfsizlik, transmilliy tashkilotlarning roli va mintaqaviy siyosiy mojarolar alohida tahlil qilinadi. Ayniqsa, O'zbekiston va Markaziy Osiyo misolida ushbu jarayonlarning lokal ta'siri va istiqbollari chuqur o'rganiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Globallashuv va siyosiy geografiya o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan sohalar bo'lib, bu boradagi ilmiy adabiyotlar so'nggi yillarda sezilarli darajada boyidi. Dastlabki tadqiqotlar globallashuvni asosan iqtisodiy fenomen sifatida talqin qilgan bo'lsa-da, keyinchalik uning siyosiy va geosiyosiy oqibatlariga oid keng qamrovli ishlanmalar paydo bo'ldi.

M. Waters tomonidan yozilgan "Globalization" (2001) nomli asarda globallashuv jarayonining siyosiy institutlar va milliy suverenitetga ko'rsatayotgan ta'siri yoritiladi. Muallif milliy davlatlar o'z suverenitetlarini xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar oldida yo'qotib borayotganini ta'kidlaydi. Bu g'oya siyosiy geografiyaning zamonaviy dinamikasini anglashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

D. Held va A. McGrew kabi olimlarning ishlari esa globallashuvni siyosiy hokimiyatning transmilliy shaklga o'tishi bilan bog'laydi. Ular tomonidan yozilgan "Global Transformations: Politics, Economics and Culture" (1999) asarida milliy chegaralarning ahamiyati tobora kamayib borayotgani va xalqaro siyosiy boshqaruv tizimi shakllanayotganini asoslab berishadi. Bu holat siyosiy geografiyaning klassik paradigmalari uchun jiddiy chaqiriq bo'lib xizmat qiladi.

J. Agnew (2009) esa siyosiy geografiyada "territorial tuzilmalar" kontseptsiyasini qayta talqin qiladi. Uning "Globalization and Sovereignty" nomli asarida davlat suverenitetining murakkabligi va nisbiyligi, ayniqsa, transmilliy kuchlar (NATO, BMT, Jahon banki va boshqalar) ta'siri fonida tahlil qilinadi. Agnewning fikricha, zamonaviy siyosiy geografiyani tushunish uchun endilikda nafaqat hududiy chegaralar, balki axborot oqimlari, iqtisodiy integratsiya va raqamli xavfsizlik kabi omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo kontekstida olib borilgan tadqiqotlar orasida B. Umarov va D. Jo'rayevning ishlari alohida e'tiborga molikdir. Ular Markaziy Osiyodagi siyosiy xavfsizlik, mintaqaviy integratsiya va geosiyosiy tahdidlar haqida yozgan maqolalarida globallashuvning mintaqaviy xususiyatlari va oqibatlarini atroflicha yoritib berishgan. Xususan, Xitoyning "Bir makon – bir yo'l" tashabbusi, Rossiyaning Yevroosiyo Ittifoqi orqali yuritayotgan siyosati va AQShning Markaziy Osiyoga nisbatan strategiyasi chuqur tahlil qilingan.

Mahalliy manbalar orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti nashrlari, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, shuningdek, Iqtisodiyot va diplomatiya universiteti olimlari tomonidan chop etilgan maqolalar ushbu sohada muhim axborot manbalarini tashkil etadi. Bu ishlarda O'zbekiston tashqi siyosatining globallashuv sharoitidagi o'zgarishlari, mintaqaviy integratsiyadagi faolligi, shuningdek, raqamli xavfsizlik bo'yicha siyosiy strategiyalari keng yoritilgan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayoni siyosiy geografiya fanini yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda davlatlararo munosabatlarni, siyosiy mojarolarni yoki xavfsizlik siyosatini o'rganishda faqat hududiy chegaralar bilan cheklanmaslik, balki raqamli maydon, axborot oqimi, transmilliy aloqalar va ijtimoiy-siyosiy dinamikani ham inobatga olish zarur bo'lmoqda. Shu jihatdan, zamonaviy siyosiy geografiya global tafakkur va mintaqaviy tahlil uyg'unligiga asoslanmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda globallashuvning siyosiy geografiyaga ta'sirini o'rganishda asosan sifatli tahlil usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar ochiq manbalar, ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari (BMT, Jahon banki, IMF), O'zbekiston Respublikasi rasmiy siyosiy hujjatlari, shuningdek, strategik tadqiqot institutlari nashr-

lari orqali toʻplandi. Tadqiqot davomida adabiyotlar tanlashda mavzuga bevosita taalluqli, soʻnggi yillarda chop etilgan, ilmiy tan olingan manbalarga ustuvorlik berildi. Olingan maʼlumotlar kontent tahlili orqali qayta ishlanib, siyosiy geografik jarayonlarning zamonaviy xususiyatlari aniqlab chiqildi. Turli mintaqalar boʻyicha taqqoslash asosida globallashuv omillarining regionlarga xos taʼsiri aniqlashga urunildi. Tahlilda geosiyosiy kuchlarning harakati, transmilliy tashkilotlar faoliyati, siyosiy migratsiya va axborot xavfsizligi kabi omillar alohida eʼtiborda boʻldi. Oʻzbekiston va Markaziy Osiyo misolida esa milliy siyosatning global tendensiyalar fonidagi holati tahlil qilindi. Natijalar umumlashtiruvchi yondashuv asosida ilmiy-nazariy xulosalarga tayangan holda chiqarildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashuv bugungi kunda dunyo siyosiy xaritasining shakllanishida hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Turli mintaqalarda ushbu jarayon oʻziga xos tarzda kechmoqda. Quyida asosiy mintaqalar boʻyicha tahlil natijalari keltiriladi:

**Shimoliy Amerika** – Ushbu mintaqa globallashuv jarayonida faol rol oʻynamoqda. AQSh global siyosiy va iqtisodiy institutlarning aksariyatiga yetakchilik qilmoqda. Transmilliy korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar va raqamli texnologiyalar siyosiy jarayonlarga kuchli taʼsir koʻrsatmoqda.

**Yevropa** – Yevropa Ittifoqi globallashuvning eng faol ishtirokchilaridan biridir. Biroq bu jarayon ichki siyosiy bosimlarga ham sabab boʻlmoqda. Xususan, migratsiya oqimlari va populistik harakatlar siyosiy barqarorlikka salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

**Osiyo** – Osiyo, ayniqsa Xitoy va Hindiston kabi davlatlarda, globallashuv siyosiy va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirdi. Mintaqada kuchlar muvozanati oʻzgarib, yangi geosiyosiy bloklar shakllanmoqda.

**Afrika** – Globallashuv Afrika davlatlarining siyosiy tizimlariga ijobiy va salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Tashqi davlatlar va xalqaro tashkilotlarning bevosita aralashuvi baʼzan ichki siyosiy muvozanatni izdan chiqarmoqda.

**Markaziy Osiyo** – Mintaqa geosiyosiy jihatdan strategik ahamiyatga ega boʻlib, Xitoy, Rossiya, AQSh va Turkiya kabi davlatlar bu hududda oʻz siyosiy taʼsir doirasini kengaytirishga intilmoqda. Oʻzbekiston esa ushbu bosimlar fonida tashqi siyosiy muvozanatni saqlashga harakat qilmoqda.

**Janubiy Amerika** – Bu hududda globallashuv iqtisodiy va siyosiy inqirozlar bilan birga kechmoqda. Davlatlar milliy suverenitetni saqlab qolish hamda tashqi bosimlarga qarshi siyosiy mustaqillikni taʼminlashga intilmoqda.

### Globallashuv va siyosiy geografiya: nazariy asoslar

Siyosiy geografiya globallashuv sharoitida yangi ilmiy vazifalarni ilgari surmoqda. Ilgari bu fan asosan davlat chegaralari, poytaxtlar va hududiy tuzilmalarni oʻrganishga qaratilgan boʻlsa, bugungi kunda u transmilliy jarayonlar, global tarmoqlar va geosiyosiy oʻzgarishlarni ham oʻz tadqiqot doirasiga kiritmoqda. Globallashuv milliy chegaralarni bevosita oʻzgartirmasdan, ularning funksional yukini tubdan oʻzgartirdi. Endilikda davlatlar oʻz suverenitetini saqlab qolish uchun xalqaro institutlar bilan faol hamkorlik olib borishga majbur boʻlmoqda.

### Geosiyosiy kuchlarning qayta taqsimlanishi

Sovuq urush davridan soʻng vujudga kelgan unipolyar dunyo tartibi XXI asrda oʻzgarib, koʻp qutbli geosiyosiy manzara shakllandi. AQSh, Xitoy, Rossiya va Yevropa Ittifoqi bugungi kunda eng yirik geosiyosiy oʻyinchilardir. Ular oʻrtasidagi raqobat nafaqat harbiy va iqtisodiy, balki axborot, texnologiya va madaniyat sohalarida ham namoyon boʻlmoqda. Ushbu geosiyosiy kuchlar oʻrtasidagi qarama-qarshiliklar Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida yangi ittifoqlar, iqtisodiy hududlar hamda xavfsizlik bloklarining yuzaga kelishiga sabab boʻlmoqda.

### Transmilliy tashkilotlar va davlat suvereniteti

BMT, Jahon banki, Xalqaro valuta jamgʻarmasi, SHHT, BRICS kabi transmilliy tashkilotlar davlatlar ichki siyosatiga taʼsir koʻrsatmoqda. Masalan, iqtisodiy islohotlar koʻplab hollarda xalqaro moliyaviy institutlar talablari asosida amalga oshirilmoqda. Shuningdek, inson huquqlari, ekologiya va kiberxavfsizlik sohasidagi global meʼyorlar milliy qonunchilikka bevosita taʼsir oʻtkazmoqda. Bu esa suverenitet masalasida yangi murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda.

### Hududiy mojarolar geografiyasi

Globallashuv hududiy mojarolarni butunlay yoʻq qilmagan, aksincha ularni yangi shakllarda namoyon boʻlishiga olib kelgan. Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq, Afrika va Osiyo hududlaridagi mojaro zonalari global kuchlar toʻqnashuvining markaziga aylangan. Suriyada, Ukrainada, Falastinda va boshqa mintaqalarda davom etayotgan mojarolar siyosiy-geografik keskinliklarning global ifodasi sifatida namoyon boʻlmoqda. Ularning barqarorlikka taʼsiri butun dunyo miqyosida sezilmoqda.

### Migratsiya va siyosiy geografiya

Iqtisodiy va siyosiy globallashuv migratsion oqimlarning kuchayishiga sabab boʻlmoqda. Siyosiy beqarorlik, qurolli mojarolar, ekologik inqirozlar yoki iqtisodiy muammolar natijasida millionlab insonlar boshqa davlatlarga koʻchmoqda. Ushbu holat esa qabul qiluvchi davlatlarda siyosiy keskinlik, millatchilik kayfiyati va populistik siyosatchilar mavqeining kuchayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi va AQShda migratsion siyosat keskin tarzda qat'iylashtirilmoqda.

### Raqamli geosiyosat: axborot urushlari va kiberxavfsizlik

Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalar siyosiy geografiyaning yangi oʻlchamlarini shakllantirdi. Kiberxavfsizlik bugungi kunda har bir davlatning milliy xavfsizligi bilan chambarchas bogʻliqdir. Axborot urushlari orqali davlatlar oʻz manfaatlarini ilgari surish, jamoatchilik kayfiyatiga ta'sir koʻrsatish, hattoki saylov natijalariga aralashish imkoniyatiga ega boʻlib qolmoqda. Ushbu yangi tahdid turini xalqaro darajada tartibga solish zarurati tobora ortib bormoqda.

### Markaziy osiyo va oʻzbekiston misolida siyosiy geografiya

Markaziy Osiyo globallashuvning geosiyosiy ta'sir doirasiga tezda kirib kelgan mintaqalardan biridir. Xitoyning "Bir kamar – bir yoʻl" loyihasi, Rossiya va SHHTning strategik manfaatlari, Turkiya hamda Hindistonning oʻsib borayotgan regional ta'siri ushbu mintaqani geosiyosiy raqobat markaziga aylantirmoqda. Oʻzbekiston esa ochiq tashqi siyosati, keng qamrovli islohotlari va mintaqaviy hamkorlik tashabbuslari orqali bu oʻzgaruvchan muhitda faol va muvozanatli oʻyinchi sifatida ishtirok etmoqda.

### Siyosiy ekologiya va globallashuv

Siyosiy ekologiya konsepsiyasi globallashuv sharoitida dolzarb mavzuga aylandi. Global isish, iqlim oʻzgarishi va tabiiy resurslar uchun raqobat siyosiy ziddiyatlarga sabab boʻlmoqda. Suv resurslari, energetika xavfsizligi va ekologik muvozanat masalalari transmilliy tus olgan. Ushbu muammolarni faqat xalqaro hamkorlik va diplomatik mexanizmlar orqali hal etish mumkin. Shu nuqtai nazardan, ekologik diplomatiya va barqaror rivojlanish siyosati siyosiy geografiyaning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

### "Yumshoq kuch" va siyosiy madaniyatlar geografiyasi

"Yumshoq kuch" (soft power) konsepsiyasi davlatlarning siyosiy geografiyasida tobora muhim oʻrin egallamoqda. Madaniyat, til, ta'lim, sport va diniy qadriyatlar orqali siyosiy ta'sir oʻtkazish imkoniyatlari kengaymoqda. Masalan, AQShning Gollivud kinosi, Janubiy Koreyaning K-pop madaniyoti, Turkiya seriallari, Xitoyning Konfutsiy institutlari orqali olib borilayotgan siyosiy-madaniy ta'sir siyosiy raqobatning harbiy va iqtisodiy sohalar bilan cheklanmasligini koʻrsatmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Globallashuv jarayoni siyosiy geografiyaning mazmun-mohiyatini tubdan oʻzgartirdi. Endilikda davlatlar nafaqat ichki, balki tashqi siyosatini ham global kuchlar, transmilliy tashkilotlar va raqamli texnologiyalar ta'siri ostida shakllantirmoqda. Ushbu holat yangi tahdidlar va imkoniyatlarning yuzaga chiqishiga sabab boʻlmoqda.

Zamonaviy siyosiy geografiyani chuqur oʻrganish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda barqaror siyosiy strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Ayniqsa, raqamli geosiyosat, axborot xavfsizligi, migratsiya, transmilliy ta'sir va "yumshoq kuch" omillarining siyosiy jarayonlardagi oʻrni chuqur tahlil qilinishi lozim.

Oʻzbekiston globallashuv sharoitida oʻzining milliy manfaatlariga asoslangan, muvozanatli va ochiq siyosiy yoʻnalishini shakllantirishi, mintaqaviy va global raqobat sharoitida siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi strategiyalarni amaliyotga joriy etishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**


1. Huntington, S. – Sivilizatsiyalar toʻqnashuvi va jahon tartibi
2. Fukuyama, F. – Tarixning tugashi va soʻnggi odam
3. Kissinger, H. – World Order
4. Buzan, B., Wæver, O. – Regions and Powers: The Structure of International Security
5. Nye, J. – Soft Power: The Means to Success in World Politics
6. BMT, SHHT, BRICS, YXHT rasmiy ma'lumotnomalari
7. The World Bank, IMF va boshqa transmilliy moliyaviy tashkilotlar hisobotlari
8. Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi siyosat konsepsiyasi
9. Internet Governance Forum (IGF) hujjatlari
10. Global Trends 2040 – National Intelligence Council

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.